Fanda ko‘proq yutuqlarga erishish uchun nazariya doimo amaliyot bilan chambarchas bog‘liqlikda bo‘lishi kerak. Biz yosh tadqiqotchilarning ham o‘z oldimizga qo‘ygan maqsadimiz nazariyani chuqurroq o‘rganib, uni amaliy jihatdan tahlil qilish natijasida kelib chiqgan muammoni o‘rganib chiqib, imkon qadar uni bartaraf etishdir. Ustoz i.f.n Oybek Ruziyev boshchiligida “Ishlab chiqarishni tashkil etish” fanidan olgan bilimlarimizni mustahkamlash hamda amaliyotda ular orqali mavjud muammolarni o‘rganib chiqish va tahlil etish maqsadida hududimizdagi bir necha ishlab chiqarish korxonalari, xizmat ko ‘rsatish sohalari faoliyati bilan tanishib chiqdik. Xususan, Termiz xalqaro logistika markazi, “INTERMEX”, “Termiz xalqaro savdo markazi”, Termiz “Sano Milk” musqaymoq ishlab chiqarish korxonasi, Rossiya bilan qo‘shma hamkorlikda qishloq xo ‘jaligi mahsulotlarini yetkazib beruvchi korxona va issiqxonasiga, ziyorat turizmini rivojlantirishda o‘z hissasini qo‘shadigan “Sulton Saodat” majmuasini ziyorat qildik.





Biz bilamizki, Surxondaryo viloyati hozirgi kunda iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan rivojlanib borayotgan hududlardan biri hisoblanadi. Hududlarda iqtisodiyotning real sektoriga investitsiyalarni rivojlantirishni faollashtirish Milliy iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish bo‘yicha qator loyihalarni amalga oshirish natijasida, mamlakatimizning ko‘plab hududlarida ishlab chiqarish sohasiga investisiyalar oqimining ijobiy natijalari kuzatilmoqda.

Statistika ma‘lumotlariga ko‘ra 2023-yilda Surxondaryo viloyati hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo ‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,6 %ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,4 % ini tashkil etdi, hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining

YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 48,7 %ni, sanoat tarmog‘i 7,3 % ni, qurilish 7,9 % ni va xizmatlar sohasi 36,1 % ni tashkil qildi. Bundan ko‘rinib turibdiki tahliliy natijalarga ko‘ra YAHMning tarmoqlar tarkibidagi asosiy ulushni ham qishloq xo‘jaligi ulushi tashkil etmoqda. Bizning amaliyotdan olgan tahlilimizga ko‘ra, hududda kichik sanoat zonasini tashkil etishdan boshlab toki yirik sanoat va ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etishdir. Shunda YaHMning tarkibida qishloq ulushiga nisbatan sanoatning ulushi ortadi. Buning uchun ko‘plab imkoniyatlar mavjuddir.

Surxondaryo viloyati tabiiy iqlim sharoiti barcha turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash uchun zarur imkoniyat yaratadi. Ya ‘ni, birgina Surxondaryo viloyati Termiz “Sano Milk” muzqaymoq ishlab chiqarish korxonasi misolida ko ‘radigan bo ‘lsak, korxonada yoz mavsumida muzqaymoq, qolgan mavsumlarda esa sut mahsulotlaridan bir necha turlari ishlab chiqariladi, bunga qo‘shimcha tarzda pishloq va sariyog ‘ mahsulotlarini ham qo‘shadigan bo‘lsak, soha yanada kengayadi, diversifikatsiya hisobiga ehtimoldan yiroq bo‘lmagan xavfni kamaytiradi daromadi ham oshadi. Hududda qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridan unumli foydalangan holda konservalangan mahsulotlar, issiqsevar kungaboqar o‘simligidan o‘simlik yog‘i ishlab chiqarish korxonlari, paxta tolasidan kalava, kalavadan ipak gazlama va gazlamadan kiyim kechak tayyorlash kabi bunga o‘xshash ko‘plab qo‘shilgan qiymati yuqori bo‘lgan tayyor mahsulotlar ishlab chiqaradigan korxonalarni barpo etish mumkin. Bu esa o‘z navbatida aholini yangi ish o‘rinlari bilan ta`minlaydi hamda sanoat rivojlanishiga asos bo‘lib xizmat qiladi, chunki Sanoat- iqtisodiy o‘sishni harakatga keltiruvchi asosiy kuch hisoblanadi.

Iqtisodiyot va servis universiteti Magistratura 1-bosqich Iqtisodiyot yo‘nalishi talabalari Oybek Ro‘ziyev bilan birgalikda Biznesni tadqiq qilish fanidan nazariy darslarni amaliyotga tadbiq etish maqsadida Airitom free zonesiga tashrif buyirdik. Airitom-free zone bu nom nafaqat Surxondaryoda balkim butun O‘zbekistonda ham tarqaldi desak yanglishmaymiz. Kelajakda Surxondaryoni

taraqqiy etishida, iqtisodiy koʻrsatkichlararini oshirishda ulkan hissa qoʻshishi kutilayotgan bu free zonega tashrifimiz va u haqidagi maʼlumotlarni sizlar bilan boʻlishmoqchiman. Airitom free zone ushbu yirik majmua Surxondaryoning janubida, Amudaryo boʻylab Avgʻoniston Oʻzbekiston chegarasida joylashgan. Airitom free zone 36 ga yer maydonini egallaydi,bu hudud oʻz ichiga 3000+ziyod savdo doʻkonlari,tibbiyot maskani, ovqatlanish shaxobchasi, 5 yulduzli mehmonxona, avtomobillar toʻxtash joylarini, yoqilgʻi quyish va taʼmirlash shaxobchasi, hostel, logistika ombori,muzlatish omborini oladi. Ushbu Free zoneda bemalol oʻzbek soʻmi, yevro, AQSh dollari, Xitoy yuangi, Rossiyskiy rublda savdo qilishingiz mumkin. Kirish va chiqish uchun 15 kunlik tartibda viza talab qilinmaydi.

Logistika quvvati 900000 tonna kutilmoqda. Yiliga 22000 yuk mashinalari,150000 yengi avtomobillar qabul qilinishi koʻzda tutilgan. Avgʻon xalqiga qulaylik yaratish maqsadida kuniga 5 marta 60 oʻronli avtobuslar qatnovi boshlanadi bu qoʻshni xaqlimizni free zonaga kirishiga sharoit yaratadi. Majmuadagi savdo doʻkonlari faqat avgʻon xalqiga 49 yil davomida mulkchilik huquqlari boʻyicha beriladi. Bu yirik majmuada 8730+dan ziyod, Avgʻoniston fuqoralari uchun 2000+ziyod ish oʻrinlari mavjud. Yiliga 1,4 mln. mehmonlar kelishi, eksport hajmi 200mln AQSH dollari kutimoqda. Yiliga 4 marta Avgʻoniston tovarlari koʻrgazmalarini oʻtkazish, Avgʻonistonda ishlab chiqarilgan 100 mln dollarlik tovarlarni kiritish va sotish, 46 ming Avgʻon fuqarosiga tibbiy yordam koʻrsatish, 5000 dan ortiq Avgʻon va Oʻzbek ishbilarmonlar oʻrtasida tajriba almashish, 2000 yaqin avgʻon fuqarolarini biznes va ishlab chiqarish boʻyicha oʻqitish, 300dan ortiq oʻzbek ishlab chiqaruvchilari mahsulotlarini koʻrgazmalarini doimiy tashkil qilish va Afgʻonistonga yetkazib berish kutilmoqda. Bu Ayiritom free zonani nazariyani amaliyotga bogʻlagan holda oʻrganar ekanmiz, bu majmuani ishga tushishi kelajakda Surxondaryo iqtisodiy koʻrsatkichlarini yuqoriga koʻtarishga yordam berishini angladik.




PEPSI








